

## KOREYS BADIY ADABIYOTIDA KLASSIK JANRLARNING SPETSIFIK XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10304475>

**Amonova Dilafroz Shaxriyorxonovna**

*Samarqand davlat chet tillar instituti*

*Doktaranti*

*Email:dilya@outlook.kr*

### **Annotation**

*In this article, along with the stages of formation of Korean literature, the genre features and content of the works created over time are highlighted. In particular, an opinion was expressed about the centuries and their genres created in the spirit of the nation, language and culture of Korean writers.*

### **Key words**

*National culture, Genre, Korean folklore, hieroglyph, Choson, 唐詩 Tan (Tang) era poetry, customs, tradition of events, Hyangang Hangul.*

**Annotatsiya** Mazkur maqolada koreys adabiyotining shakllanish bosqichlari bilan bir qatorda davrlar osha yaratilgan asarlarning janr xususiyatlari, mazmuni haqida yoritib o'tilgan. Xususan, koreys adiblarining millat, til va madaniyat ruhida yaratilgan asrlar va ularning janrlari haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Milliy madaniyat, Janr, koreys folklori, ieroglif, Choson, 唐詩 Tan (Tang) davri she'riyati, urf-odatlar, tadbirlar an'anasi, Xyangga hangul.

Koreys adabiyoti 1-ming yillik boshlarida vujudga kelgan. Bu Koreya yarim orolida Konfutsiy an'analari asosida ishlab chiqilgan davlat boshqaruvi g'oyalari o'zlashtirilgan davr edi. Koreyada o'ziga xos an'anaviy ta'lim adabiyoti yaratilmoqda, unda asosiy o'rin tarixiy asarlar ta'limoti va ibratli yozuvlarga beriladi. Adabiyotdagi konfutsiy yo'nalishi shaxsning davlat manfaatlariga bog'liqligi bilan ajralib turar edi<sup>80</sup>.

Eramizning birinchi asrlarida Koreyaga buddizm kirib keldi. Koreya zaminida o'zining talqin qiluvchi, keyin esa mustaqil falsafiy adabiyoti o'sib bordi, ammo buddizmning koreys adabiyotiga ta'siri kengroq bo'lib, u nafaqat "maxsus" buddist sohasi bilan chegaralanib qolmadi.

<sup>80</sup> Andronova L.A. Kultura Korei. Ch.1. Tomsk: Izd-vo Tomskogo politexnicheskogo universiteta.2014.S18

Bitta madaniyatdagi bu ikki oqim adabiyotda ancha o'ziga xos tarzda mujassamlashgan edi.

Miloddan avvalgi ikkinchi asrlar - birinchi asrlarda Koreyaga ieroglif yozuvlari kirib kela boshladi.

Eramizning boshlarida ieroglif yozuvining rivojlanishi Koreyaga Uzoq Sharq madaniyati merosiga qo'shilib, o'z adabiyotini yozma ravishda ifodalashiga yordam berdi. Xanmun tilidagi asarlar (ya'ni, koreyslashgan xitoy venyan tili) paydo bo'ladi, ularning yonida Idu tilidagi asarlar bor. Koreya tarixida XV asr milliy madaniyatining eng yuqori gullash davri hisoblanadi. Bu davrda astronomiya, geografiya va tabiatshunoslik kabi fanlar eng rivojlangan davr deyish mumkin. Erta Choson (XV-XVI asrlari) - turli bilim sohalarida buyuk ixtirolar va kashfiyotlar davri bo'ldi. 1403-yilda bosmaxona uchun dunyoda birinchi bo'lib, terish metall turi ixtiro qilingan bo'lsa, 1443-yilda koreys milliy yozuvi kashf etildi. Ushbu XV asrda yaratilgan ikki kashfiyot alohida ahamiyatga ega bo'lgan<sup>81</sup>. Yangi yaratilgan yozuvdan hukmron sinf vakillari klassik konfutsiylik ta'limoti hamda buddaviylik ta'limoti asosida yozilgan diniy adabiyotda ham koreys tiliga tarjima qilishda foydalanishgan. Biroq ushbu alifbo yaratilganiga ko'p vaqt bo'lmay, undan mavjud tuzumga qarshi bo'lganlar ham qo'llaganlar. Yana bu asrning yutuqlaridan biri nokonfutsiylik mafkurasi - "Chjusi" yo'nalishi keng tarqalgan. XV-XVI asrlarda koreys tilidagi she'riyatning yangi janrlari - "sichjo", "kasa", "chan-sichjo" vujudga keldi. Albatta bunga koreys yozuvining shakllanishi imkon berdi<sup>82</sup>.

Yangi davrdagi koreys adabiyoti folklarga ayniqsa faol murojaat qiladi. Masalan, epik ijod tarixiy asarlarda davlat ideali bilan bog'liq holda o'zlashtirildi; u buddist biografiyasini oziqlantirib, davrning eng buyuk shoirlari uchun mavzular manbai bo'lgan. Mahalliy folklarga qiziqish buddizm an'analari bo'lganligi sababli, buddist mualliflarning asarlarida afsonalar, shaman afsonalari ishlatilgan<sup>83</sup>.

Koreya madaniyati grafik jihatdan belgilangan matn va og'zaki xabarning qarama-qarshiligi bilan ajralib turardi. Birinchisi qimmatli, ahamiyatli, ishonchga loyiq deb hisoblangan, ikkinchisi esa unchalik qadrlil bo'lmagan - shubhali haqiqiy deb hisoblangan. Hamma narsa, o'sha davr mualliflari nuqtai nazaridan, past darajadan yuqori darajaga o'tkazilishi mumkin emas, ya'ni, aytganlarning hammasi yozilmagan.

<sup>81</sup> Tixonov V.M, Kan Mangil. Istoriya Korei v 2 t. / T.1: S drevneyshix vremen do 1904 g. M: Natalis, 2011. 182 s.

<sup>82</sup> Barannikov V.D. Xrestomatiya po literature. M. 1996,25s

<sup>83</sup> Filosofiya: Ensiklopedicheskiy slovar / pod red. A.A. Ivina. M: Gardariki, 2004. 1072 s. Rejim dostupa: <http://textarchive.ru/c-2003033-p100.html>.

Muallif o'z asariga aniq og'zaki kelib chiqishi materialini kiritishi uchun u yozma shaklda bo'lishi, manbaga havola berishi yoki og'zaki manbaga murojaatini qandaydir tarzda ishonchli asoslashi kerak edi.

Demak, Koreya yarim oroliga konfutsiylik va buddizmning kirib kelishi koreys adabiyotining shakllanishiga ma'lum ta'sir ko'rsatdi. Gohida bu ta'sir asarlarning she'riy shakl, mavzu va syujet tanlashda bo'lsa, gohida syujetning ma'lum bir axloqiy-diniy yoritilishi shaklida namoyon bo'lgan.

Qadimda yarim orolda yashagan qabilalarning og'zaki xalq og'zaki ijodi buddizm va konfutsiylik elementlari bilan qo'shib koreys adabiyotining shakllanishi va rivojlanishiga asos bo'ldi.

Koreya klassik adabiyotini uch davrga bo'lish mumkin:

1. Boshlanishi asrlar davomida yo'qolgan ilk davr - X asr o'rtalarigacha. Bu davrdan eng kam yodgorlik saqlanib qolganligi va faqat ayrim asarlarning nomlari va ayrim parchalarigina saqlanib qolgan edi. Bu materiallarga asoslanib, birinchi davr tarixiy nasr taraqqiyoti bilan xarakterlangan, deb taxmin qilish mumkin. Bu ona tilidagi she'riyatning gullab-yashnashi va xanmunda she'riyatning shakllanish davri edi.

2. Koryo adabiyoti (918-1392). Birinchi davr: X-XII asr o'rtalari - davlatchilikni mustahkamlash davri va buning natijasida adabiyotda konfutsiy g'oyalari ustunlik qiladi. Koreya tarixiy nasrining adabiy yodgorliklari yaratiladi. Ikkinchi davr: XII-XIV asrlar. - davlatchilikning zaiflashuv davri. Adabiyotda obrazning obykti sifatida xususiy shaxs alohida ajralib turadi. Bir qator yangi she'riy va nasriy janrlar paydo bo'lib, Koreya uchun qisqa shaklli nasrning yangi turi - paezol janri yuzaga keladi.

3. Li adabiyoti (1392-1910). XV-XVI asrlarning birinchi davri. XVII-XVIII asrlarning ikkinchi davri. Uchinchi davr - XIX asr.[12;213]

Koreada bu davrlar oralig'ida, xalq og'zaki ijodi, adabiyot va madaniyat o'z alomatlarini ko'rsata boshladi. Koreys adabiy janrlari yuzaga kela boshladi. Bularning barchasi koreys baddiy ijodida tub burilish yasadi. Mohiyatan makon va zamon tushunchalarini o'z ichiga olgan ko'plab janrlarda asarlar yuzaga keldi.

Koreya tarixida XV asr milliy madaniyatining eng yuqori gullash davri hisoblanadi. Bu davrda astronomiya, geografiya va tabiatshunoslik kabi fanlar eng rivojlangan davr deyish mumkin. Erta Choson (XV-XVI asrlari) - turli bilim sohalarida buyuk ixtirolar va kashfiyotlar davri bo'ldi. 1403-yilda bosmaxona uchun dunyoda birinchi bo'lib, terish metall turi ixtiro qilingan bo'lsa, 1443-yilda koreys milliy yozuvi kashf etildi. Ushbu XV asrda yaratilgan ikki kashfiyot alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Yangi yaratilgan yozuvdan hukmron sinf vakillari klassik

konfutsiylik ta'limoti hamda buddaviylik ta'limoti asosida yozilgan diniy adabiyotda ham koreys tiliga tarjima qilishda foydalanishgan. Biroq ushbu alifbo yaratilganiga ko'p vaqt bo'lmay, undan mavjud tuzumga qarshi bo'lganlar ham qo'llaganlar. Yana bu asrning yutuqlaridan biri nokonfutsiylik mafkurasi - "Chjusi" yo'nalishi keng tarqalgan. XV-XVI asrlarda koreys tilidagi she'riyatning yangi janrlari - "sichjo", "kasa", "chan-sichjo" vujudga keldi. Albatta bunga koreys yozuvining shakllanishi imkon berdi.

**絶句 Cho'lg'u janri** - "Buzilgan baytlar" degan ma'noni anglatib, 5-7 iyeroglifli, aniq ohang va ritmik naqshli to'rtburchaklar shaklida yoziladi.

### **律诗 Yulsi.**

Koreyada xitoy she'riyatining tartiblili misralar (gelyuishi) kabi janrlari keng tarqalgan. Ushbu yulsilar besh so'zli, yetti so'zli misralardan tashkil topib, 3-4 va 5-6 hamda 8 misralardan iborat qo'sh qurilishli ma'lum ohangni o'z ichiga olishi bilan ajralib turadi.

### **說 Soll.**

Koreys romanlari an'anaviy jeon biografiyasi janri doirasida yaratilgan yangi turdagi badiiy adabiyotga misol bo'la oladi. Ushbu asarlar rus koreysshunosligida "Hikoya" nomini olgan, chunki ular qissa va romandan farqli o'laroq, uzaytirigan hikoya shakliga yaqin yozilganligi bilan farq qilinadi. Ushbu soll janridagi hikoyalar biografiya janrida asar qahramonlarining nomi bilan atalib koreys tilida yozilganligi bilan farq qiladi. Mazkur hikoyalar koreys adabiyotining eng mashhur janrlaridan biri bo'lib, ushbu janrda bir qancha adiblar ijod qilishgan ammo ularning mualliflarini ismlari ham, yozilish vaqti ham saqlab qolinmagan.

### **鄉歌 Xyangga hangul**

Ona tilidagi she'r - xyangga - "Vatan qo'shiqlari" deb nomlanib, Silla davlatida, idu tomonidan yozib olingan (Tang she'rlaridan 唐诗 tansidan birmuncha farq qiladi)

Xyanga janri edu tomonidan yozilgan 4-8 va 10 qatordan iborat.

Xyangga hangul: 향가 Koreys tili ya'ni (Koreys alifbosi sifatida tanilgan Hangul (Xangul) Janubiy Koreya va Shimoliy Koreya uchun yozuv tizimi bo'lib King tomonidan 1443-yil Buyuk Sejong davrida yaratilgan.)

Hancha: 鄉歌 (Koreys: Yon사; Xancha: 漢字, Koreyscha talaffuz: [ha (: ) nɕea], yoki xancha) Koreyada tashkil topgan an'anaviy yozuv tizimining nomi.

An'anaviy xitoycha belgilar (Xitoy: 漢字; pinyin: hànzi) idu hangul 이두 hamda Xanja: 吏讀 da qorishiq holda yozilgan. (Idu koreys tilini ifodalash uchun hanja belgilaridan foydalanadigan tizim).

Xyangga birinchi noyob koreys she'riy shakllardan biridir. Dastlab mazkur janrda kuylangan qo'shiqlar Silla davriga mos keladi. Hozirga qadar bu noyob she'riy qo'shiqlardan faqat yigirma beshtasi omon qolgan.

Xyangganing gullagan davri – davlatchilikning shakllanish davri hisoblanadi. Qo'shiqlarning kompozitsiyasi va ijrosi mazkur davr faoliyati bilan bog'liq bo'lib 花郎 – ular turfa ma'nodagi ma'murlar, ruhoniylar, shoirning vazifalarini bajarishgan.

Xyangga ijrosi she'riy so'zning tabiat va davlatga sehirli ta'siri bilan bog'liq edi.

### 唐詩 Tan (Tang) davri she'riyati

Tan davri Xitoy she'riyatining "Oltin davri" hisoblanadi. Tan sulolasining boshlanishi 618 yilga to'g'ri keladi. Bu sulola avvalgi Sui sulolasidan (581-618) meros qilib olingan bo'lib, uning markazlashuvi davom etdi. Tan davri dunyoga juda ko'p taniqli va buyuk shoirlar Li bo, Du Fu, Van Vey, Bo Ju-i singari she'riy so'z ustalarini yetkazib berdi. Ular yaratgan asarlar xilma-xilligi va chuqur ma'ni yechimga ega ekanligi hamda bugungi kunda ham o'z qadr-qimmatini va mohiyatini yuqotmaganligi bilan ajralib turadi.

### 花郎 Hwarang.

XX asrgacha mavjud bo'lgan qadimgi Koreya davlati Silladagi yoshlar ijtimoiy instituti tuzilmasi sifatida faoliyat olib borishgan. Mazkur tuzilmaga 14-15 yoshli yigitlar saralab olingan. Yigitlar ijtimoiy kelib chiqishi jihatdan boy zodogonlar va oddiy aholi oilalaridan ham xvaranglarga yollanib, maxsus ta'lim oldilar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Andronova L.A. Kultura Korei. Ch.1. Tomsk: Izd-vo Tomskogo politexnicheskogo universiteta. 2014
2. Barannikov V.D. Xrestomatiya po literature. M. 1996.
3. Jovtis A.L., Pak Ir P.A. Koreyskie shestistishiya (sbornik stixov koreyskix poetov XIII-XIX vekov). – Alma-Ata, 1956.
4. Nikitina M. I. Drevnyaya Koreyskaya poeziya v svyazi s ritualom i mifom // M: Izd-vo "Nauka" – 1982. – 328s; Koreyskaya poeziya XVI-XIX vv. v janre sidjo: (Semanticheskaya struktura janra. Obraz. Prostranstvo. Vremya). – SPb.: sentr «Peterburgskoe Vostokovedenie», 1994.
5. Saydazimova U.T., "Poetika koreyskoy poezii". –Tashkent, 2013.



6. Ten A. A. Ocherki koreyskoy literatury XX veka (do 1945 g.). – Seul, 2003.
7. Filosofiya: Ensiklopedicheskiy slovar / pod red. A.A. Ivina. M: Gardariki, 2004. 1072 s. Rejim dostupa: <http://textarchive.ru/c-2003033-p100.html>.
8. Tokarev S.A. Rannie formy religii. M: Politizdat, 1990.
9. Levi-Stross K. Pervobytnoe myshlenie. / per, vstup. st. i prim. A. B. Ostrovskogo. M: Respublika, 1999. il. (Мыслители XX в.).
10. Tixonov V.M, Kan Mangil. Istoriya Korei v 2 t. / T.1: S drevneyshix vremen do 1904 g. M: Natalis, 2011.
11. То Уххо. По поводу некоторых впервые опубликованных materialov, относящихся к истории Korei kamennogo veka. [В.м.]: Istoricheskaya nauka, 1955. № 1.
12. Ten A. A. Ocherki koreyskoy literatury XX veka (do 1945g.). – Seul, 2003.